



**BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA PEDAGOGNING SHAXSIY
NAMUNASINING O'RNI**

**Xudoyberdiyeva Sitora Abdurashit qizi
Yangiboyeva Maysara Abdig'aniyevna**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Anotatsiya

Mazkur maqolada barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida pedagogning shaxsiy namunasining o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati, axloqiy qiyofasi hamda jamiyatda tutgan mavqei yosh avlod dunyoqarashining shakllanishiga bevosita ta'sir etadi. Shaxsiy namuna orqali o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faoliyatga tayyorlik kabi fazilatlar rivojlanadi. Tadqiqotda pedagogning tarbiyaviy faoliyati, shaxsiy fazilatlari va ularning o'quvchi ma'naviyatiga ta'siri zamonaviy pedagogika konsepsiyalari asosida tahlil qilinadi.

Аннотация

В данной статье научно раскрыта роль и значение личного примера педагога в процессе воспитания гармонично развитого поколения. Личность педагога, его профессиональное мастерство, нравственный облик и социальный статус напрямую влияют на формирование мировоззрения молодёжи. Через личный пример у обучающихся формируются уважение к национальным и общечеловеческим ценностям, способность к самостоятельному мышлению и готовность к социальной активности. В исследовании анализируется воспитательная деятельность педагога, его личные качества и их влияние на духовное развитие учащихся на основе современных педагогических концепций.

Anotation

This article scientifically analyzes the role and significance of the teacher's personal example in educating a well-rounded generation. The teacher's personality, professional skills, moral integrity, and social status directly influence the worldview formation of young people. Through personal example, students develop respect for national and universal values, independent thinking skills, and readiness for social activity. The study examines the teacher's educational activities, personal qualities, and their impact on students' moral development within the framework of modern pedagogical concepts.



Kalit so‘zlari: Pedagog, shaxsiy namuna, barkamol avlod, tarbiya, ma’naviyat, axloqiy qiyofa, mustaqil fikrlash, qadriyatlar

KIRISH.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimida barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida pedagog shaxsining shaxsiy namunasiga tayanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilingan qonun va farmonlar, milliy konsepsiyalar mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni ilmiy-metodik asosda olib borishga mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida har kimning ta’lim olish huquqi kafolatlangan bo‘lib, ushbu huquqning mazmun-mohiyatini to‘liq amalga oshirishda o‘qituvchi shaxsi va uning tarbiyaviy faoliyati alohida e’tiborga olinadi. Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yil yangi tahririda)da ta’lim jarayonining maqsadi sifatida yosh avlodda mustaqil fikrlash, vatanparvarlik ruhini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatni tarbiyalash vazifalari belgilab qo‘yilgan. Mazkur qonunda o‘qituvchining pedagogik mahorati va shaxsiy fazilatlarini o‘quvchi shaxsini shakllantirishdagi muhim omil sifatida qayd etiladi. Davlatimiz rahbari tomonidan ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar ham pedagog shaxsining namunasiga alohida urg‘u beradi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF–5712-sonli Farmoni hamda 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish strategiyasi”ga oid PF–60-son Farmonida o‘qituvchining jamiyatdagi mavqei yuksaltirish, ularning shaxsiy va kasbiy rivojini ta’minlash, shuningdek, ta’lim jarayonida shaxsiy namuna orqali yoshlar qalbida Vatanga sadoqat, bilimga chanqoqlik va ma’naviy barkamollikni shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni (2016-yil 14-sentabr, O‘RQ–406)da ham yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy barkamolligini ta’minlashda pedagoglarning shaxsiy mas’uliyati, namuna bo‘lishi va tarbiyaviy faoliyati alohida ta’kidlangan. Ushbu huquqiy hujjatlar barkamol avlodni tarbiyalashda o‘qituvchi shaxsiy namunasining nazariy va amaliy asoslarini belgilashda muhim dasturilamal hisoblanadi. Ilmiy-pedagogik qarashlarga ko‘ra, ta’limda shaxsiy namuna o‘quvchiga bevosita ta’sir qiluvchi eng kuchli tarbiyaviy omillardan biri bo‘lib, u nafaqat dars



jarayonida, balki o'qituvchining kundalik xatti-harakatida, muloqot madaniyatida, ijtimoiy faoliyatida namoyon bo'ladi. A. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "O'qituvchi o'z shaxsi bilan ham dars berishi kerak" deya ta'kidlagan. Bugungi ta'lim islohotlari mazkur g'oyani zamonaviy sharoitda qayta talqin qilib, pedagog shaxsining namunasini barkamol avlod tarbiyasining poydevori sifatida qaramoqda. Shu boisdan ham ushbu mavzuni o'rganish ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan dolzarbdir. Zero, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida o'qituvchilardan nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki shaxsiy namunasi orqali yosh avlodni ma'naviy yetuk, barkamol inson etib tarbiyalaydigan fidoyi tarbiyachi bo'lish talab etilmoqda[15].

Barkamol avlod tarbiyasida pedagog shaxsining shaxsiy namunasining o'rni ilmiy-pedagogik qarashlarda doimiy ravishda alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Chunki ta'lim jarayonida o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki o'qituvchining dunyoqarashi, xulq-atvori, nutq madaniyati, kasbiy mahorati orqali bevosita tarbiyaviy ta'sirga ega bo'ladi. Bu jarayonni zamonaviy pedagogik adabiyotlarda "shaxsiy namuna asosidagi ta'lim-tarbiya" konsepsiyasi sifatida baholash mumkin. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida o'qituvchining shaxsiy namunasi tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Xususan, 2019-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda o'qituvchining kasbiy faoliyatida nafaqat bilim berish, balki yoshlarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash majburiy vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, 2030-yilgacha mo'ljallangan Xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasida o'qituvchi shaxsiy namunasining yoshlar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni shakllantirishdagi roli alohida ko'rsatib o'tilgan.

Pedagog shaxsining shaxsiy namunasini ko'rsatishning birinchi darajasi uning kasbiy malakasi va ilmiy saviyasidir. O'qituvchining bilim darajasi, dars jarayonida qo'llaydigan metodlari, pedagogik mahorati o'quvchi uchun bevosita ta'sir kuchiga ega. Shuning uchun ham pedagog o'z kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi lozim. Bu borada Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Ustoz – shogird" an'analarini rivojlantirish tashabbusi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki yosh o'qituvchilar tajribali pedagoglarning shaxsiy namunasi asosida nafaqat kasbiy bilim, balki insoniy fazilatlarini ham o'zlashtiradilar. Ikkinchi darajada o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini va kundalik hayotdagi xulqi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, o'quvchilar o'qituvchining so'zidan ko'ra uning amaliy faoliyatidan ko'proq ta'sirlanadi. Agar o'qituvchi intizomli, vatanparvar, bilimga chanqoq va mehnatsevar bo'lsa, bu sifatlari o'quvchilarda ham tabiiy ravishda shakllanadi. Shu boisdan pedagogning shaxsiy namunasi yoshlarning dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini



belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi[14].

O‘zbekiston pedagogik merosida bu masalaga alohida e‘tibor qaratilgan. Masalan, Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “O‘qituvchi o‘zining shaxsiy hayoti, muomala madaniyati bilan ham dars berishi lozim” deya ta’kidlagan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy ham o‘qituvchi shaxsining namunaviyligi ta’lim-tarbiyada asosiy shartlardan biri ekanini ko‘rsatib bergan. Bu g‘oyalar bugungi ta’lim jarayonida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan boyib bormoqda. Uchinchi darajada, o‘qituvchining shaxsiy namunasi o‘quvchi-yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Chunki milliy g‘oya va mafkura asosida yoshlarda ma’naviy barkamollikni shakllantirish faqatgina nazariy bilimlar orqali emas, balki amaliy hayotiy misollar va o‘qituvchining real xulq-atvori orqali samarali natija beradi. Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida “Yangi O‘zbekiston – yangi ta’lim” tamoyili asosida barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida pedagog shaxsining namunasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda[13].

Zamonaviy ilmiy manbalarda ham pedagog shaxsining namunasini ta’lim jarayonidagi “nolchi dars” deb atash mumkinligi ta’kidlanadi. Ya’ni, dars boshlanishidan oldin o‘quvchi pedagogning kiyinish madaniyati, nutq ohangi, odob-axloqi, vaqtga munosabatidan ta’sirlanadi va bu ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqish va ishtirokga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun pedagogning o‘zini tutishi, shaxsiy fazilatlarini ta’lim sifatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, xalq pedagogikasida ham ustozning shaxsiy namunasiga alohida urg‘u berilgan. “Ustoz ko‘rmagan shogird – yo‘ldan adashadi” degan maqol bevosita o‘qituvchi shaxsining o‘quvchi hayotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu qadriyatlar zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda, barkamol avlod tarbiyasi yanada samarali bo‘ladi. Barkamol avlodni tarbiyalashda pedagog shaxsining shaxsiy namunasi ta’lim jarayonida eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi. U nafaqat bilim berish jarayonida, balki o‘quvchining ma’naviy-axloqiy shakllanishida, ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda bevosita ta’sir kuchiga ega. Shu boisdan o‘qituvchi o‘zining shaxsiy namunasi bilan yosh avlodni ma’naviy barkamol, vatanparvar, bilimli va komil inson sifatida voyaga yetkazishda yetakchi omil hisoblanadi. Pedagog shaxsining shaxsiy namunasi faqat ta’lim jarayonining ichki tarkibiy qismi emas, balki butun jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Chunki yoshlarning dunyoqarashi, hayotga munosabati, kelajakdagi faoliyati ko‘p jihatdan o‘z o‘qituvchilarining namunasi asosida shakllanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida o‘qituvchining faqat bilim beruvchi emas,



balki ijtimoiy yetakchi, ma'naviy yo'lboshchi sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi. Bu o'rinda pedagogning shaxsiy namunasi nafaqat sinf yoki maktab doirasida, balki kengroq ijtimoiy muhitda ham yoshlar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi[16]. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarda o'qituvchi shaxsining mavqeini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning "O'zbekiston – 2030" strategiyasida o'qituvchilarning ijtimoiy maqomini oshirish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularga yaratilayotgan imkoniyatlarni kengaytirish orqali yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Chunki davlat rahbari ta'kidlaganidek: "O'qituvchi qanday bo'lsa, jamiyat shunday bo'ladi". Bu fikr pedagogning shaxsiy namunasi ta'lim-tarbiyadagi hal qiluvchi o'rni va ta'sirini yana bir bor tasdiqlaydi[12]. Pedagogning shaxsiy namunasi o'z ichiga uch asosiy yo'nalishni qamrab oladi: axloqiy fazilatlar, kasbiy kompetensiyalar va ma'naviy-ma'rifiy yetakchilik. Axloqiy fazilatlarda o'qituvchining halolligi, odilligi, muloqot madaniyati, mehribonligi kabi sifatlar alohida e'tiborga loyiqdir. Kasbiy kompetensiyalarda esa bilimdonlik, pedagogik texnologiyalarni qo'llash mahorati, innovatsion yondashuvlar, zamonaviy metodik bilimlar asosiy omil hisoblanadi. Ma'naviy yetakchilik esa milliy g'oyaga sadoqat, vatanparvarlik ruhini targ'ib qilish, xalqimizning boy tarixiy va madaniy merosini yoshlar ongiga singdirish orqali namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, pedagog shaxsining namunasi faqat ta'lim jarayonidagina emas, balki kengroq ijtimoiy hayotda ham namoyon bo'ladi[11]. Masalan, mahalladagi ijtimoiy tadbirlarda faol qatnashadigan, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlaydigan o'qituvchi yoshlar uchun chinakam ibrat maktabiga aylanadi. Bu jarayon o'quvchi-yoshlarning hayotiy qadriyatlarini va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, xalqimizning boy ma'naviy merosida ham ustoz shaxsining shaxsiy namunasi alohida e'tibor bilan talqin qilingan. Masalan, Alisher Navoiy o'z asarlarida ilmi va odobli ustozning jamiyatdagi o'rnini ulug'lab, "Ustozdan ibrat olmagan shogird ilmda ham, odobda ham ojiz qoladi" deya qayd etgan. Xalq pedagogikasidagi "Ustoz – otangdan ulug'" degan hikmatli so'z ham pedagogning jamiyatda naqadar muhim o'rin tutishini ifodalaydi. Zamonaviy pedagogikada o'qituvchi shaxsining shaxsiy namunasi yoshlarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Chunki hozirgi kunda ta'lim tizimida bilimlarni yod olishdan ko'ra, ularni hayotda qo'llay olish, yangi g'oya yaratish, innovatsion qarashlarga ega bo'lish ko'nikmalari ko'proq qadrlanmoqda. Pedagog shaxsiy namunasi orqali bu jarayon o'quvchilar ongiga yanada tezroq va samaraliroq singadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qituvchining shaxsiy namunasi



Learning and Sustainable Innovation

bevosita ta'sir kuchiga ega. Chunki bu yosh davrda bolalarda ko'rgan-bilganini tez o'zlashtirish, ustozning har bir harakatini kuzatib o'rnak olish tabiiy jarayon hisoblanadi. Shu boisdan boshlang'ich ta'limda faoliyat yurituvchi pedagoglar nafaqat bilimli, balki o'z hayoti bilan ham namunali bo'lishi talab etiladi. Bu jarayon orqali bolalarda tartib-intizom, mehnatsevarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik kabi sifatlar shakllanadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, pedagogning shaxsiy namunasi nafaqat shaxsiy sifatlari, balki uning kasbiy faoliyatida qo'llaydigan metodlari va yondashuvlarida ham namoyon bo'ladi. Masalan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanadigan, o'quvchilar bilan muloqotda demokratik yondashuvni qo'llaydigan, individual qobiliyatlarni rivojlantirishga e'tibor beradigan pedagog o'z shaxsiy namunasi orqali o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqillik va tashabbuskorlikni shakllantira oladi. Pedagog shaxsining shaxsiy namunasi barkamol avlod tarbiyasida eng samarali va kuchli tarbiyaviy omillardan biri bo'lib, u ta'lim sifati, tarbiya samaradorligi va jamiyat kelajagi bilan bevosita bog'liqdir[10]. Shu sababdan zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining shaxsiy namunasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Pedagogning shaxsiy namunasi masalasini yanada chuqurroq tahlil qilar ekanmiz, u nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki kengroq ijtimoiy-ma'naviy muhitda ham hal qiluvchi o'rin tutishini ko'ramiz. Chunki o'qituvchi shaxsiy namunasi yoshlarning shaxs sifatida shakllanish jarayonida ularning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy faolligi, mehnatga munosabati va eng muhimi, o'z xalqiga sadoqati kabi fazilatlarni shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Shu boisdan ham qadimdan xalqimizda "Yaxshi ustozdan yaxshi shogird qoladi" degan maqol mavjud bo'lib, bu fikr ustoz shaxsining namunasi bevosita kelajak avlod taqdirini belgilashdagi rolini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim siyosatida ham pedagog shaxsiy namunasi masalasiga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Masalan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'qituvchilardan nafaqat bilim beruvchi sifatida, balki ma'naviy-ma'rifiy tarbiya beruvchi, jamiyatning faol ishtirokchisi sifatida ham faoliyat yuritishi talab etiladi. Shu jihatdan qaraganda, pedagogning shaxsiy namunasi yoshlarni "milliy qadriyatlarga sodiq, zamonaviy bilimlarga ega, ma'naviy yetuk shaxs" qilib tarbiyalashning asosi sifatida e'tirof etiladi. Pedagogning shaxsiy namunasi nafaqat o'quvchi bilan dars jarayonidagi muloqotida, balki uning tashqi ko'rinishi, nutq madaniyati, o'zini tuta bilishi, odob-axloqi, jamiyatdagi faoliyati orqali ham namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida yoshlar turli manbalardan ma'lumot olayotgan bir paytda, ularga aniq va sog'lom yo'l ko'rsatib beruvchi, hayoti va faoliyati bilan ibrat bo'luvchi ustozning shaxsiy namunasi yanada



dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki axborot oqimida yoshlar ko‘plab qarash va g‘oyalarga duch kelmoqda, shunday vaziyatda ustozning ibrati ularni to‘g‘ri yo‘nalishga yetaklaydi. Shuningdek, pedagog shaxsiy namunasi o‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga, mehnatsevarlikka, kitob mutolaasiga, ijodkorlikka undaydi. Bunday jarayonlarda ustozning o‘zi o‘qishga qiziqqan, yangilikka intilgan, yangicha bilimlarni egallashga odatlangan bo‘lsa, shogirdlar ham tabiiy ravishda bu fazilatlarini o‘zida shakllantiradi. Shu ma’noda, pedagog shaxsiy namunasi yoshlarni mustaqil fikrlashga, mas’uliyatli qaror qabul qilishga, jamiyatda faol pozitsiya egallashga undovchi kuchli ijtimoiy omil hisoblanadi. Alohida ta’kidlash joizki, o‘qituvchi shaxsining namunasi xalqimizning boy madaniy-ma’naviy merosi bilan ham bevosita bog‘liqdir[9]. Masalan, jadid ma’rifatchilari — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov singari ulug‘ pedagoglar o‘z hayotlari bilan yoshlar uchun shaxsiy ibrat maktabiga aylanganlar. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ustoz shaxsini jamiyat taraqqiyotining bosh mezonini sifatida ko‘rsatib, “Muallim – millatning eng sharafli kishisidir” deb ta’kidlagan. Bu fikr bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yangicha mazmun kasb etmoqda. Bugungi ta’lim tizimida ham ustoz shaxsiy namunasi zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashmoqda. Masalan, o‘qituvchi o‘z faoliyatida STEAM ta’limi, raqamli pedagogika, innovatsion metodlarni qo‘llasa, u yoshlar ongida zamonaviylik, yangilikka intilish, ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni qadrlaydigan, ma’naviy poklikni targ‘ib etadigan pedagog yoshlar uchun ham zamonaviy, ham milliy ko‘rinishda ibrat bo‘lib xizmat qiladi. Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogning shaxsiy namunasi faqat dars berish jarayonida emas, balki tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy hayotdagi faoliyat, oilaviy hayotidagi namunaviy xatti-harakatlari orqali ham ifodalanadi. O‘quvchi ko‘pincha ustozining kitobdan tashqari hayotini ham kuzatadi, uni o‘z hayotiga qiyos qiladi va shu asosda o‘zi uchun muayyan xulosa chiqaradi. Shu boisdan ustozning shaxsiy namunasi uning butun hayotiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Pedagog shaxsining shaxsiy namunasi ta’lim jarayonining ichki tarkibiy qismi bo‘libgina qolmay, balki yoshlarning hayotga munosabatini, jamiyatdagi faolligini, milliy qadriyatlarga sodiqligini belgilovchi hal qiluvchi omildir. Shu sababdan, zamonaviy ta’lim jarayonida ustoz shaxsiy namunasi masalasini yanada chuqurroq o‘rganish va amaliyotda kengroq qo‘llash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir[8].

XULOSA

Yuqoridagi ilmiy tahlillardan ko‘rinib turibdiki, pedagog shaxsining shaxsiy namunasi ta’lim-tarbiya jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan omildir. U nafaqat



o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini, balki ularning dunyoqarashi, ma’naviyati, ijtimoiy faolligi va hayotga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Shaxsiy namunasi bilan yoshlar qalbida chuqur iz qoldirgan ustozlar doimo jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan va o‘ynamoqda. Shu boisdan, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarda o‘qituvchi shaxsining mavqeini yuksaltirish, ularni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Pedagogning shaxsiy namunasi uch asosiy qirrada – axloqiy fazilatlar, kasbiy kompetensiyalar va ma’naviy-ma’rifiy yetakchilik orqali ifodalanadi. Bu sifatlarning uyg‘unligi natijasida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlarni tarbiyalovchi, ularning kelajak hayotini yo‘naltiruvchi haqiqiy murabbiyga aylanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf ta’limida ustozning shaxsiy namunasi bolalarning axloqiy tarbiyasida bevosita hal qiluvchi ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Shu sababdan zamonaviy ta’lim tizimida pedagog shaxsiy namunasi masalasi ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganilishi va amaliyotda keng tatbiq qilinishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2023.
3. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. – Toshkent: Ma’naviyat, 1992.
4. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.
5. Hasanboyeva O., To‘raqulov N. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
6. Yo‘ldoshev J.G‘., Xodjayeva N.A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
7. Qodirov N., Nishonova Z. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Noshir, 2017.
8. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.
9. Saydulloyevich, Ochilov Y., and Xolova M. Shavkatovna. "Scientific Activity and Spiritual Heritage of Imam Ghazali." *European Scholar Journal*, vol. 3, no. 6, 10 Jun. 2022, pp. 19-22.
10. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 19-22.



11. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. *European Journal Of Life Safety And Stability (2660-9630)*, 12, 424-429.
12. Mohigul Shavkatovna Xolova, & Yakub Saydulloyevich Ochilov (2021). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academic research in educational sciences*, 2 (6), 54-57. doi: 10.24411/2181-1385-2021-01083
13. Saydulloyevich, O. Y., & Kizi, J. N. Z. (2022). Methods Of Developing Labor Education At School And In The Family. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 57-60.
14. Saydulloyevich, Y., & Kizi, N. (2022). Analysis of pedagogical problems of gender differences in resolving conflict situations. *International Scientific Research Journal*, 3(3), 154-157.
15. Saydulloyevich, O. Y., & Raxmonovich, I. R. Factors Of Orientation Of Students To The Teaching Profession. *JournalNX*, 317-319.
16. Saidulloyevich, Y. O. (2022). Comments and explanations on the works of the great mutaffakkir imam ghazali. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 241-244.